

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

ЎЗБЕК ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ

ТИЛ НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ КАФЕДРАСИ

**Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси  
фанидан маъруза матнлари**

**Тузувчи:                      проф. в.б. З.Холманова**

**Тошкент – 2012**

## МАЪРУЗА МАТНЛАРИ

### 1-§ “Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси” фани предмети ва мазмуни

“Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси” фанининг мақсади туркий тилларнинг фонетик, лексик, грамматик хусусиятларини ёритиш, морфологик, типологик ўзига хосликларини умумлаштириш, морфологик бирликларни ажратиш; туркий тилларнинг умумтараққиёт ва хусусий тараққиёт босқичларини ўрганиш, туркий тиллар таснифи, таснифларнинг мазмуни, таснифлашдаги асосий мезонларни аниқлаш; туркий тилларнинг шаклланиши, олтой тиллари орасидаги ўрнини, мўғул, тунгус-манчжур, угор-фин тиллари билан муносабатини ёритиш; туркий тилларни таснифлашда фонетик, географик, этник таркиб мезонларининг ўрнини изоҳлашдан иборат.

Affiksal morfemalar o`zak morfemaga birikish xususiyatiga ko`ra muayyan tilning o`ziga xos jihatlarni namoyon qiladi. O`zak morfemalarning tabiatiga ko`ra tillar asosan *agglutativ va flektiv* tillarga bo`linadi<sup>1</sup>.

Turkiy tillar, jumladan o`zbek tili affiksal morfemalari tabiatiga ko`ra agglutativ hisoblanadi. Agglutinatsiya «ketma-ketlik» ma`nosidagi so`z bo`lib, qo`shimchalarning o`zakka ma`lum tartib va ketma-ketlikda qo`shilishidan dalolat beradi. Bunday hollarda o`zak va qo`shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglutativ tillarda so`z shakllari o`zgaras holda qo`shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma`noni ifodalaydi. Masalan, -lar faqat ko`plik qo`shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo`shimchaning boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma`nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi.

Turkiy tillarda (o`zbek tilida) o`zakka dastavval, so`z yasovchi qo`shimchalar (morfemalar), keyin shakl yasovchi va oxirida so`z o`zgartuvchi qo`shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qat`iy qoida morfem tahlilda, ya`ni so`zlarni ma`noli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *o`rtoqlarcha, mardlarcha* so`zlari *o`rtoq-lar-cha, mard-lar-cha* ko`rinishida emas, balki *o`rtoq-larcha, mard-larcha* tarzida ma`noli qismlarga ajratiladi.

O`zbek tilidagi affiksal morfemalar o`zak morfemadan keyin qo`shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo`shimchalar o`zbek tili tabiatiga xos emas. Tilimizdagi *ser-(sersuv)*, *no-(nomard)*, *be-(begunoh)*, *ba-(badavlat)*.. kabi old qo`shimchalar fors-tojik tiliga xos bo`lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma`rifiy omillar ta`sirida o`zbek tiliga o`zlashib ketgan. Old qo`shimchalar rus-baynalmilal so`zlarida ham uchraydi.

Flektiv tillarda o`zak morfema va affiksal morfema chegaralari sezilmaydi. Rus tili, arab tili flektiv tillarga mansubdir: *videt-viju*; *xodit-xoju*; *hukm-mahkama-hokim-hakam-mahkum*; *fikr-tafakkur-mutafakkir*; *zulm-zolim-mazlum*; *hol-ahvol*; *xulq-axloq*; *she`r-ash`or*.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi:

---

<sup>1</sup> Agglutinatsiya-lotınca «yopishtirish» ma`nosini; fleksiya «bukilish» ma`nosini anglatadi.

a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilarning soni 15 milliondan oshadi. Bulardan 9 milliondan koʻprogʻi Eronda, 6 milliondan koʻprogʻi esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;

b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili boʻlib, bu tilda 40 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

v) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili boʻlib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

g) *oʻzbek tili*. Bu til Oʻzbekiston Respublikasining (poytaxti Toshkent) davlat tili boʻlib, bu tilda 16 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi;

d) *qozoq tili*. Bu til Qozogʻiston respublikasining (poytaxti Olma Ota) davlat tili boʻlib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

e) *qirgʻiz tili*. Bu til Qirgʻiziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili boʻlib, bu tilda 1,5 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi;

j) *tatar (Qozon tatarlari) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili boʻlib, bu tilda soʻzlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;

z) *uygʻur tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq boʻlib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin shan-uygʻur avtonom tumanida yashaydilar;

i) *chuvash tili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili boʻlib, bu tilda 1,5 milliondan koʻprogʻi kishi soʻzlashadi;

k) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili boʻlib, bu tilda 1 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

l) *yoqut tili*. Bu til Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili boʻlib, 300 mingdan koʻp kishi soʻzlashadi;

m) *qoraqalpoq tili*. Qoraqalpogʻistonda yashovchi xalqlarning tili boʻlib, bu tilda 200 mingdan ortiq kishi soʻzlashadi;

i) *tuva tili*. Tuva respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili boʻlib, bu tilda 150 mingdan koʻprogʻi kishi soʻzlashadi.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi soʻzlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi soʻzlashadi), balqar tili (50 ming kishi soʻzlashadi), xakas tili (60 ming kishi soʻzlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda oʻlik tillardan oʻrxoʻn, pechena, qipchoq, qadimgi uygʻur, bulgʻor va xazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

## **2-§. Туркий тиллар таснифи**

Sharq ilmida ham tillar tasnifiga oid, tillarning muhim jihatlarini yorituvchi qarashlar mavjud. Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari bu boradagi beqiyos manbadir.

Mahmud Koshgʻariy turkiy tillar klassifikatsiyasini yaratishga birinchi boʻlib qoʻl urgan olimdir.

Mahmud Koshgʻariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy metoddan foydalandi. U turkiy tillarning leksikasini, morfologiyasini va fonetikasini bir – biriga qiyoslab, ular orasidagi oʻxshash va farqli tomonlarini koʻrsatdi. Lugʻatda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 soʻz izohlangan.

Mahmud Koshg`ariy turkiy tillar fonetik qonuniyatini birinchilardan bo`lib yoritgan olimdir. U “Devonu lug`otit – turk” da fonetik qonuniyatlarning tovush almashinuvi, tovush tushishi, tovush o`ttishi kabi ko`rinishlarini batafsil izohlagan.

Uning tasnifi ikki prinsipga tayanadi:

1. Tilning sofligi prinsipi.
2. Fonetik- morfologik prinsip.

Mahmud Koshg`ariy XI asrda yashagan turkiy xalqlarning tillarini ikki qismga ajratadi:

1. Sharqiy turkiylar tili
2. G`arbiy turkiylar tili.

Mahmud Koshg`ariy birinchi guruhga Bolosog`un, Koshg`ar atrofida yashaydigan xalqlarning tillarini kiritdi. Bular chigil, qorluq, uyg`ur, tuxsi, yag`mo kabi xalq va qabilalarning tillaridan iborat edi.

Mahmud Koshg`ariy asarida o`zbeklar, qozoqlar, qirg`izlar, turkmanlar, uyg`urlar, tatar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarini va bu xalqlarning qadimgi sodda tillarining namunalarini mukammal izohlab berdi. Bu xalqlar devon materiallari asosida o`zlarining tillari qaysi qabila tili asosida shakllanganini aniqlash imkoniyatiga ega bo`ldilar. Mahmud Koshg`ariy “Devonu lug`otit turk” asarida davrining mukammal dialektologiyasini yaratib berdi.

M. Zamaxshariyning “Muqaddimat – ul -adab” asarida, muallifi noma`lum asar “Kitob –i-majmu-u-tarjimon turki va ajamiy va mo`g`uliy” asarida, Abu Hayyonning “Kitob al – idrok li-lison al -atrok” asarida Jamoliddin Ibn Muxannaning “Xiliat-ul-inson va xalibat-ul-lison” asarida, Jamoliddin at-Turkiy “Kitobi ul-lug`ot al-mushtoq fi-l-lug`ati at-turk va l-qipchoq” asarida, “Kitob-at-tuhfag`-uz-zakiyatu fi-l-lug`at-it-turkiy” asarida turkiy tillar haqida fikr yuritilgan.

XV asr olamida ulug` mutafakkir shoir, madaniyat va davlat arbobi Alisher Navoiyning mashaqqatli mehnati, izlanishlari hamda Husayn Boyqoroning homiyligi tufayli turkiy tillar orasida o`zbek tilining mavqeyi jahon miqyosiga ko`tarilgan edi. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug`atayn” asarida turkiy tilning keng imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab berdi.

O`zbeklar yirik turkiy xalqlardan bo`lib, tarixiy manbalarining guvohlik berishicha, ularning ota-bobolari qadimdan O`rta Osiyo hududining asosiy aholisi bo`lgan.

O`zbek xalqi o`zining uzoq tarixiga ega bo`lib, o`tmishdan tortib, XIX asrning II yarmigacha turk, sart, chig`atoy va nihoyat o`zbek atamalari bilan yuritilib kelingan.

Туркий тиллар таснифи бир катор мезонларга асосан амалга оширилган. Улардан кенг тарқалгани қуйидагилар:

В.В Радлов туркий тилларни географик ўрнига кўра 4га ажратади:

1. Шарқий гуруҳ (олтой, чулум турклари, карагас, хакас, шўр, тува ва енисей турклари).
2. Ғарбий гуруҳ (Сибирь татарлари, қирғиз, қозоқ, бошқирд, татар, корпкл.);
3. Ўрта Осиё –уйғур, ўзбек

4. Жанубий гуруҳ-туркман, озар, турк тиллари.

Ёкут тили алоҳида гуруҳни ташкил этади.

Ф.Е.Корм, И Бенциг, К.Менгес, В.А.Богородицкий Г.Рамстедт - географик классификация муаллифлари.

А.Самойлович фонетик хусусиятларига кўра тасниф қилган:

1.Р гуруҳи: *булғур, чуваш: й (қадимги з) ўрнида р. оёқ-ўрн).*

2.Д гуруҳи: *уйғур, шимолий-шарқий туркий тиллар.*

3.Тау гуруҳи: *алтай, қирғиз, қумиқ, қарачай-балкар, қарам, татар, бошқирд, қозоқ, нўғай.*

4. Тағлиқ гуруҳи: *эски ўзбек тили, ҳозирги уйғур ва ўзбек тили.*

5. Тағли гуруҳи: *Хоразм ўзбеклари, туркман-қипчоқ тиллари.*

6. Ол (бўл-ўл) гуруҳи: *жануби- ғарб турк тиллари (озар, турк гагауз).*

### 3-§.Туркий тиллар фонетикаси

Ҳар бир тил оиласининг бошқа тил оилаларидан ажратиб турувчи хусусиятлари мавжуд. Масалан, туркий тиллар оиласи учун хос бўлган сингармонизм, сўз бошида ундошларнинг кетма-кет кела олмаслиги, гап бўлақларининг жойлашиш тартиби каби хусусиятлари уни бошқа тил оилаларидан фарқлаб туради. Мана шундай тил хусусиятларининг йигиндиси шу тил оиласининг тил қурилиши дейилади. Тил оиласининг ўзига хос хусусиятлари гапирилганда, муайян давр назарда тутилади, чунки тилга хос хусусиятлар қотиб қолган, доимий бўлмай, ўзгарувчандир. Бироқ шуни ҳам назарда тутиш керакки, турли тиллардаги ўхшаш ҳодисалар доимо унинг бир манбадан келиб чиқишига боғлиқ бўлмайди. Генетик қариндошлик натижаси бўлган умумий ўхшаш ҳодисалар ҳамда тилларнинг бир-бирига таъсири натижасида вужудга келган ўхшашликлардан фарқлаш керак.

Туркий тилларни бир тил оиласига бирлаштирувчи ва бошқа тил оилаларидан фарқловчи хусусиятларидан бири лексик составнинг бир-бирига жуда яқинлиги ва грамматик қурилишнинг ўхшашлигидир. Шунинг учун чуваш ва ёкутлардан бошқа ҳамма туркий халқ вакиллари ўз она тилларида гаплашганларида бир-бирини муайян даражада тушуна олади.

**Туркий тилларнинг унлилар тизими.** Дунёдаги барча тилларда бўлгани каби туркий тилларда ҳам унли ва ундошлар оппозицияси мавжуд.

Ҳозирги туркий тилларда унли ва ундош товушлар миқдори бир хил эмас. Баъзи туркий тилларда унлиларнинг миқдори 20 тадан ортиқ /масалан, тува, гагауз, чулим-татар тилларида /,кўпчилигида 8та / ҳозирги ўзбек адабий тилида хатто 6 та /.Ундош товушлар миқдорида эса бунчалик катта фарқ йўқ. Туркий тиллар фонетикасига бағишланган асарларда ундошлар миқдори 20 тадан кам кўрсатилмаганидек, 30 тадан ортиқ ҳам қайд қилинмайди.

Ҳозирги туркий тиларнинг деярли ҳаммасида ҳар бир унли пайдо бўлиш ўрнига кўра оппозиция ҳосил қилади (ҳозирги ўзбек тили бундан мустасно, яъни олд қатор унлилар \заро фарқланмайди):

Орқа қатор унлилар

Олд қатор унлилар

*а, о, у*

*а, о, у*

Бу саккизта унли В.В.Радлов фикрича, умумтуркий боботил даврида ҳам мавжуд бўлган.

Туркий тиллардаги сингармонизм ҳодисаси унлиларнинг мана шу типда бир-биридан фарқланишига асосланади.

Сингармонизм ҳодисаси олдинги бўғиндаги /ёки ўзакдаги / унлига кейинги бўғиндаги /ёки бўғинлардаги / унлиларнинг, баъзан ундошларнинг артикуляция ўрни ва усулига кўра мослашувидир. А. М. Шчербак таъкидлаганидек, бир бўғинли сўзлардаги унли сифат жиҳатидан доимий ва мустақил бўлиб, кўп бўғинли сўзлардаги кейинги унлилар эса биринчи бўғинга мувофиқлашади.

Масалан, *бар, ган, -лар, кол-га, колга* /ўзбек тили кипчоқ шевалари /, *йук-солтмак* /озарбайжон тили /.

Бу ҳодисаларнинг биринчиси ва учинчисининг биринчи бўғинида орқа қатор /каттиқ / унли бўлгани учун кейинги бўғинларда ҳам шундай унлилар келган. Иккинчи ва тўртинчи мисолларнинг биринчи бўғинида олдинги қатор /юмшок /унли бўлгани учун кейинги бўғинлардаги унлилар ва ундошлар унга мослашган. Сингармонизмнинг бу кўриниши -палатал ёки танглай сингармонизмида биринчи бўғин унлиси мустақил бўлиб, кейинги бўғиндаги унлилар унга тобе бўлади, яъни биринчисига мослашади.

Ҳозирги туркий тилларда лабиал сингармонизм ҳам мавжуд: биринчи бўғинда лабланган унли келса, кейинги бўғинларда ҳам унлилар келади. Масалан: *қулдор* /"қуллар" қирғиз тили /, *колу* /"кули" турк тили /.

Сингармонизмнинг бу икки кўринишидаги биринчиси энг қадимги бўлиб, у туркий боботил даврига бориб тақалади. Туркий тиллар оиласига мансуб бўлган ҳозирги уйғур тилида сингармонизмнинг бошқа кўриниши ҳам мавжуд. Бу тилнинг ўзига хос хусусияти асл туркий бир бўғинли сўзларда /баъзан кўп бўғинли сўзларда ҳам /кейинги бўғиндаги тор и унлиси таъсирида ундан олдинги бўғиндаги кенг а унлиси тораяди, а товушига ўтади: *баш-беши, бала-баласи*. Бу ҳодиса тескари сингармонизм деб аталади. Тескари сингармонизм, уйғур тилидан ташқари, ўзбек тилининг Наманган ва Уйчи шеваларида ҳам учрайди: *белик / балиқ /, жой-жейим, том-теминг, янги-енги*.

Туркий ўзаклар таркибидаги унлилар туркий тилларда, ҳатто бир туркий тил доирасида бир хил бўла бермайди: айтиб бир сўзнинг биринчи бўғини бир туркий тилда ёки шевада олдинги қатор унлиси, иккинчи туркий тилда / шевада / орқа қатор унлиси келиши мумкин. Бундай ҳодиса туркологияда сингармонистик вариантлар деб юритилади /масалан, қадимги уйғур тилида: *турна- тирна*, қирғиз тилида: *чомул-чомул*, қозок тилида: *шай-шай*, озарбайжон тилида: *окуз-окуз*.

Туркий тиллардаги лабиал сингармонизм унли ҳосил бўлишида лабнинг иштирокига асосланади: *о,о,у,у*, унлилари лабланган, *а,а,қ,и*, унлилари лабланмаган унлилардир. Масалан, *дуиолоро* /туяларга /, *оглонлоро* /ўғилларга /, *қирғиз*, *қополоқ* /капалак/, *тундо* /тунда/, *колдоруноздун* /қўлларингиздан /. Лабиал сингармонизм айниқса қирғиз тилида яққол ифодаланади. Сингармонизмнинг бу тури ўғуз группа ва кипчоқ группа тилларда анча тарққий этган. Чунки ўзбек, хакас каби туркий тилларда деярли йўқ даражада.

Туркий тилларнинг ичида ҳозирги ўзбек адабий тили сингармонизмнинг бутунлай йўқлиги билан ажралиб туради. Бу ҳодиса айрим сўзлар таркибидагина сақланиб қолган. Ўзбек тилида сингармонизмнинг бузилиши, биринчи навбатда, ўзбек тилининг ички таракқиёти асосида юз берди. Буни бошқа туркий тиллардаги сингармонизмга бўйсумайдиган аффикслар, сингармонистик вариантларнинг мавжудлиги ҳам кўрсатади. Бироқ бу процесснинг тезланишида сўғд, хоразмий, сак ва тожик каби шарқий эроний тилларнинг ҳам роли катта бўлган. Бу тил вакиллариининг жуда катта қисми туркий қабилалар билан аралашishi, узок вақт икки тилнинг ҳукм суриши оқибатида туркий тилнинг /эски ўзбек тилининг/ фонетикаси, лексикаси, грамматикасида айрим ўзгаришлар пайдо бўлди. Қисқа қилиб айтганда, туркий асосда бузила бошлаган сингармонизмнинг бутунлай йўқолишида шарқий эроний тиллар ва араб тили катализаторлик ролини ўйнади.

Туркий тилларнинг бир қанчасида, жумладан, олтой, гагауз, қирғиз, тува, туркман, ёкут каби тилларда ва ўзбек тилининг Қорабулоқ шеvasида унлилар узун ва қисқалиги нуктаи назаридан бир-биридан фарқ қилади. Бу физиологик фарқ бўлиб, маънони фарқлаш учун хизмат қилади. Масалан, қорабулоқ шеvasи: *а: т-исм*, *ат-от* /хайвон /, *а: ч-корни* - *оч* /эшикни оч/.

Булар бирламчи чўзиқ унлилар ҳисобланиб, ўша сўз таркибида азалдан чўзиқ ҳолда мавжуд. Ҳозирги туркий тилларда сўздаги айрим фонетик ўзгаришлар натижасида вужудга келган чўзиқ унлилар ҳам мавжуд. Масалан, уйғурча *о: гак* /ўроқ /, *о: дак* /ўрдак /каби сўзларда биринчи унли чўзиб талаффуз қилинади. Бундай унлилар туркологияда икқиламчи чўзиқ унлилар деб юритилади.

Ҳар бир тил оиласида бўлгани каби, туркий тиллар орасида ҳам унлилар мослиги мавжуд. Товуш мослиги деганда бир қариндош тилдаги бирон бир товушга иккинчи қариндош тилдаги бошқа бир товушнинг мунтазам ҳолда мос келиши тушунилади. Масалан ўзбек тилидаги э товушига татар тилида и товуши мос келади : *кел* // *қил*, *эт* // *ит*, *бет* // *бит* каби ўзбек тилидаги э товушига озарбайжон тилидаги а товуши мос келади : *мен* // *ман*, *кел* // *гал*, *элик* // *алли* каби.

Ҳозирги туркий тиллар ичида чуваш тили ўзининг фонетикаси /айниқса, лексикаси / жиҳатидан алоҳида ажралиб туради. Шунинг учун бошқа туркий тиллар билан чуваш тили унлилариининг мослигини

солиштириш диққатга сазовордир. Бошқа туркий тиллардаги а унлисига кўпинча ҳозирги чуваш тилида у унлиси мос келади.

Бошқа туркий тилларда

Чуваш тилида:

бар//пар

пур/бор/

каз//газ

хур/гоз

атла//хатла

ўт/хатламоқ

жат

жут

балиқ

пула/балиқ

байан

пужан/бой

алти

улт/олти

**Туркий тилларда ундошлар тизими.** Туркий тилларнинг ундошлар системасида ҳам хос хусусиятлар мавжуд. Ундошларнинг ҳар бир туркий тилда ўзига хос хусусиятлари бўлиши билан бирга, умумий ўхшаш томонлари ҳам кўп. Масалан, туркий тилларда ундошлар сўз составида қўлланиш позицияси нуктаи назаридан ўзаро фарқланади. Соф туркий сўзлар сонор товуш билан бошланмайди /бундай сўзлар учраса, улар бошқа тилдан ўзлашган ёки кейинги фонетик тараққиёт натижасида юзага келган бўлади/. Сонорлар кўпроқ сўзнинг охириги қисмида учрайди. Сонор бўлмаган ундошлар эса сўзнинг бошида ҳам, охирида ҳам келаверади. Бу ҳодиса туркий тиллар тарихининг энг қадимги даврларида кучли бўлган. Туркий боботил ва ундан кейинги даврларда ҳатто жарангли ундошлар ҳам сўз бошида жуда кам қўлланган. Умуман, туркий тиллар тараққиётида сўз бошида жарангли ундошларни ишлатишдан қочиш ҳарактерли ҳол бўлган. Масалан, проф. А.Шчербак тиклаган бир бўғинли туркий боботил ўзаклари ичида *на* /нима/ ўзагидан бошқа бирорта сонор ёки жарангли ундош билан бошланган ўзак учрамайди /бундан й билан бошланган ўзаклар мустасно/. Ҳозирги туркий тилларда жарангли ундошлар билан бошланадиган ўзаклар фонетик ўзгаришлар ҳосил бўлган иккиламчи ҳодисадир.

Сўз бошида жарангсиз ундошларнинг жаранглилашуви туркий тилларнинг ҳаммасида бир хил содир бўлмайди. Баъзи туркий тилларда бу процесс жуда тор доирада воқеа бўлиб, бошқаларида эса жуда кенг тус олган.

Туркий тилларнинг ўғуз группасида /туркман, турк, озарбайжон тилларида/ сўз бошида ундошларнинг жаранглилашуви кенг тарқалган: бошқа туркий тилларда сўз бошида келадиган к, п, т каби жарангсиз ундошлар ўрнида бу тилларда г, б, м, д жарангли ундошлар келади. Масалан, ўзбек тилидаги кел, кур, тоғ, тош сўзлари озарбайжон тилида гал, гур, даг, даш кўринишига эга. Сўз бошида ундошларнинг жаранглилашуви қорлуқ, қипчоқ тилларида ҳам учраб туради. Масалан, ўзбек тили ва унинг диалектларида бир сўзнинг тераза-дераза, токча-дакча, тала-дала каби жарангсиз ва жарангли товуш билан бошланувчи вариантлари мавжуд: қозоқ тилида байғ /пойга/, ди рмен/ тегирмон/ каби сўзлар жарангли товуш билан бошланади. Сўз бошида жарангсиз

ундошларнинг кўпроқ сақланиши Сибирь ареалидаги туркий тиллар ва чуваш тили учун ҳарактерли ҳодисадир.

Туркий тилларга хос фонетик ҳодисалардан бири сўз ўртасидаги жарангсиз ундошларнинг интервокал позицияда жаранглилашувидир. Шунинг назардан туркий тилларни икки гурпуага бўлиш мумкин:

1/бир бўғинли сўзлар таркибида жаранглилашуви содир бўладиган туркий тиллар:

2/бир бўғинли сўзлар таркибида жаранглилашуви содир бўлмайдиган туркий тиллар.

Биринчи гурпуа тилларда бир бўғинли ўзакларга унли билан бошланувчи аффикс қўшилса, ўзак охиридаги жарангсиз ундош жаранглашади. Масалан, хакас тилида: пас-пазқ / бош-боши/, ат-ади/от-оти/: тува тилида: ас-азып/ осиб/: қозоқ тилида: шык-шықиб / чиқиб/, кап-кабы /копи/: татар тилида: ак-ақым /оқим/ каби.

Иккинчи гурпуа тилларида бир бўғинли ўзакларга ҳар қандай шароитда ҳам жарангсиз ундош сақланади. Масалан, ўзбек тилида: *от-оти*, *эк-экиб*, *оқ-оқиб*, лекин бу тилларда кўп бўғинли сўзларнинг охиридаги к, қ, п жарангсиз ундошлари интервокал позицияда жаранглилашади: ўзбек тилида : ўртоқ-ўртоғи, ўсимлик-ўсимлиги: уйғур тилида: *язлик-язлиги* /*езлиги*/ , *аяк-айиғим* каби. Бундай жаранглилашув ундошлардан кейин эгалик аффикси қўшилгандагина содир булади, бошқа ҳолларда эса улар жарангсизлигича қолади: қишлоқи, уйноқи, қўриқиб, қизиқиб каби. Қорлуқ ва ўғуз гурпуа тилларига бошқа тиллардан кирган сўзларда ҳам бу ундошлар жаранглилашмайди.

Туркий тилларда айрим жарангли ундошларнинг /масалан, б, д, ундошларининг/ сўз охирида келиши ниҳоятда чегараланган, шунинг учун ўзбек тилига бошқа тиллардан жарангли ундошлар билан тугаган сўз қабул қилинса, бундай ундош жарангсизлашади. Масалан, ўзбек тилида : китоп, ет / китоб, ед/ , уйғур тилида: жавоп, қирим-татар тилида : шарап, қозоқ тилида: мектеб каби. Бу сўзларга унли билан бошланадиган аффикс қўшилса, улар яна жаранглилашади: *китоби*, *едида*, *жавоби*, *шароби*, *мектеби* каби.

Туркий тилларнинг консонантизмида турли-туман мулоҳазалар туғилишига сабаб бўлган ҳодисалардан бири ундошлар геминацияси асли ундошнинг микдор жиҳатдан ўзгариб, чўзиқ товушга ўтиши, яъни икқиланишидир. Ёзувда бундай ундошлар иккита бир хил ҳарфни кетма-кет ёзиш билан акс эттирилади. А.Шчербакнинг фикрича, интервокал позицияда ундошлар жаранглилашуви мавжуд бўлган тиллардагина геминатлар бўлиши мумкин. Интервокал позицияда ундошларнинг жаранглилашуви эса ҳамма туркий тилларга хос. Демак, туркий боботил даврида ҳам ундошлар геминацияси мавжуд бўлган.

Ундошлар геминациясининг ассимиляция натижасида вужудга келиши туркий тилларда энг кўп тарқалган: ўзбек тилида: етти /етди /, шаҳари /шаҳарни /: кумик тилида: минни /минди /, уланна /улгонда /: қозоқ тилида: атти /отни/, солдаттар /солдатлар / каби.

Геминат товушларнинг ўзак таркибида учраши туркий тилларда бир хил эмас. Қорлуқ, ўғуз ва булғор тилларида бундай товушлар анча кўп учраса, қипчоқ группасида ва Сибирь ареалидаги тилларда /ёкут тили бундан мустасно/ бу ҳодиса кам учрайди ёки мутлақо учрамайди. Масалан, ўзбек тилида: *доғғуз*, чуваш тилида *тахҳар*, қозоқ тилида: *тоғуз*; қирғиз тилида: *тоғус*.

Туркий тиллар фонетик жиҳатдан ўзаро жуда яқинлигига қарамай, ҳар бир группа туркий тиллар ва алоҳида олинган туркий тил ўзига хос фонетик тараққиёти жараёнига эга. Шунинг учун туркий боботилда айна бир ундош бўлгани ҳолда, конкрет туркий тилларда бошқа-бошқа ундош қўлланила бошлаган. Бу жиҳатдан айниса й-ж-д-ч ундошларининг қўлланилиши ҳарактерлидир. Қиёсланг:

Ўзбек тилида: туркман тилида: қозоқ тилида: олтой тилида:

|     |     |     |     |
|-----|-----|-----|-----|
| йил | йил | жил | дил |
| йук | йок | жок | док |

Мисоллардан кўриниб турибдики қорлуқ ва ўғуз группа тилларида сўз бошида келадиган й товуши ўрнида қипчоқ ва Сибирь группа тилларида ж, д ва ч товушлари қўлланади.

Қорлуқ, қипчоқ ва Сибир тилларида сўз бошида келадиган к, т товушлари ўрнида ўғуз тилларида г, д товушлари ишлатилади, яъни г, д товушлари к, т товушларининг функциясини бажаради:

ўзбек т: озарб т: уйғур т: туркм т: ёкут т: татар т: бошк т:

|     |     |     |     |     |     |     |
|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| кел | гал | кал | гел | кел | кил | кил |
| тош | даш | таш | даш | тас | таш | таш |

Ротацизм ва лабдаизм чуваш тили билан бошқа туркий тиллар ундош товуш мослигида яққол намоён бўлади. Масалан, ўзбек тилидаги юз, эз, тўққиз, қозон, куз, эшик, эшит, етмиш, олтмиш сўзлари чуваш тилида сер р, тахҳар, хуран, кер, алак /дарвоза/, илт, с итмел, утмал кўринишларига эга. Бу жиҳатидан чуваш тили муғул тилларига анча яқинроқдир. Мўғул тиллари билан бошқа туркий тиллар орасида ҳам л-ш мослиги мавжуд /танил -таниш/. Бу ҳолат чуваш мўғул контакти анча узоқ вақт давом этганидан далолат беради.

Ротацизм ва лабдаизм қолдиқлари бошқа туркий тилларда ҳам учраб туради: ўзбек тилида: семир-семиз, кўрар-кўрмас, сергак-сез: озарбайжон ва туркман тилларида: дэшик-делик /тешик/: бошқирд тилида: кашик, калак /чой қошиқ/.

Юқорида қорлуқ ва қипчоқ группа тилларида й-ж мослиги мавжудлиги ҳақида гапирилади. Лекин бу умумий фонетик қонуниятдан чекиниш ҳоллари ҳам учрайди. Масалан, қорлуқ группа тилларида сўз бошида баъзан й эмас ж келади. Масалан, узб, жўнамоқ, жун: уйғур. журак /юрақ/ каби: ўғуз группа тилларида сўз бошида т ўрнида д товушининг қўлланилиши ҳарактерли бўлгани ҳолда, озарбайжон тилида айрим сўзларда аксинча: таниш, тарла /дала/, туташма /ушламоқ/ каби: ўзбек тилида сўз бошида й ва д товушларини параллел қўллаш ҳоллари ҳам мавжуд: думалоқ // юмалоқ / каби.

#### 4-§. Туркий тиллар морфологияси

Turkiy tillar faqat genetik jihatdan qarindosh tillar bo'lib qolmasdan, ayni paytda tipologik jihatdan ham bir xil. Tillarning morfologik klassifikatsiyasi bo'yicha agglutinatив tillar guruhiga kiradi. Turkiy agglutinatив tillarning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

1. So'z doimo o'zakdan boshlanadi.

2. O'zak, asosan o'zgarmasdir. O'zakdan keyin qo'shilgan har qanday affiks o'zakni fonetik jihatdan o'zgartirmaydi.

3. So'z formalari asosan affikslar vositasida hosil qilinadi.

4. So'z formalari hosil qilishda supplitiv formalar mutlaqo ishtirok etmaydi, ya'ni bir so'zning turli formalari faqat bir o'zakdan hosil qilinadi.

5. O'zak va affiks organik birikib ketmaydi, ular orasidagi chegara aksariyat hollarda aniq va ravshan bo'ladi. Masalan, boshlandi so'z formasida bosh – o'zak, -la- fe'l yasovchi affiks va di – zamon yasovchi: bular bir-biridan aniq ajralib turadi.

6. Har bir grammatik ma'noni ifoda etishda alohida affiks qo'shiladi, shuning uchun bir so'z formasida bir necha affiks ketma- ket, bir qatorda keladi.

Turkiy tillarda so'z o'zak va affikslarga ajratiladi. O'zak turkiy tillarda fonetik jihatdan tubandagi ko'rinishlarga ega (v-unli, c-undosh): v-u; vc- ol, ot, cv-na, ma; cvc- bosh, go'l, yoz; vcc –ont, ust; cvcv – bola.

Affiksal morfemalar o'zak morfemaga birikish xususiyatiga ko'ra muayyan tilning o'ziga xos jihatlarini namoyon qiladi. O'zak morfemalarning tabiatiga ko'ra tillar asosan *agglutinatив* va *flektiv* tillarga bo'linadi<sup>2</sup>.

Turkiy tillar, jumladan o'zbek tili affiksal morfemalari tabiatiga ko'ra agglutinatив hisoblanadi. Agglutinatsiya «ketma-ketlik» ma'nosidagi so'z bo'lib, qo'shimchalarning o'zakka ma'lum tartib va ketma-ketlikda qo'shilishidan dalolat beradi. Bunday hollarda o'zak va qo'shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglutinatив tillarda so'z shakllari o'zgarmas holda qo'shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, -lar faqat ko'plik qo'shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo'shimchaning boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma'nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi.

Turkiy tillarda (o'zbek tilida) o'zakka dastavval, so'z yasovchi qo'shimchalar (morfemalar), keyin shakl yasovchi va oxirida so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qat'iy qoida morfem tahlilda, ya'ni so'zlarni ma'noli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *o'rtoqlarcha*, *mardlarcha* so'zlari *o'rtoq-lar-cha*, *mard-lar-cha* ko'rinishida emas, balki *o'rtoq-larcha*, *mard-larcha* tarzida ma'noli qismlarga ajratiladi.

<sup>2</sup> Agglutinatsiya-lotinchа «yopishtirish» ma'nosini; fleksiya «bukilish» ma'nosini anglatadi.

O'zbek tilidagi affiksal morfemalar o'zak morfemadan keyin qo'shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo'shimchalar o'zbek tili tabiatiga xos emas. Tilimizdagi ser-(sersuv), no-(nomard), be-(begunoh), ba-(badavlat).. kabi old qo'shimchalar fors-tojik tiliga xos bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillar ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashib ketgan. Old qo'shimchalar rus-baynalmilal so'zlarida ham uchraydi.

Flektiv tillarda o'zak morfema va affiksal morfema chegaralari sezilmaydi. Rus tili, arab tili flektiv tillarga mansubdir: *videt-viju; xodit-xoju; hukm-mahkama-hokim-hakam-mahkum; fikr-tafakkur-mutafakkir; zulm-zolim-mazlum; hol-ahvol; xulq-axloq; she'r-ash'or*.

Туркий тиллардаги қадимий морфологик шакллар таҳлил қилинганда олтой назариясидаги фикрлар маълум маънода асослангандек бўлади.

1.Турк —мўғул-тунгус алоқалари морфалогиянинг ҳамма бўлимларида кўринади. Бу уч гуруҳга мансуб тиллар учун умумий бўлган морфологик кўрсаткичлар ( тўлик) аниқланган эмас (агар айрим туркий тилларда ҳозирги келаси замон сифатдоши, мўғул тилларида тутлоқ диспричастие, тунгус мантурда ҳозирги замон сифатдоши афексни ҳамда ўрин ва йўналиш билдирувчи (асосан равишдош таркибида)-ра,-ру,-----) аффиксини ҳисобламаганда).

Қадимги турк ва мўғул тилларидаги морфологик мунособатларни ўхшаш ва фарқли томонларини қуйидагича қиёслаш мумкин:

Турк мўғул тиллари учун умумий бўлган морфологик кўрсаткич сифатида ўрн.(-да) жўн к-ги (-а), ҳаракат номи (ку), шахс оти(чи) ўринни билдирувчи —даки сифат типидagi сўз ясовчи кўшимча, от ва феъл ясовчи —м, вул, -ла) кўшимчалари характерлидир.

Сифат даражаларининг қадимги туркий тилдаги бир шаклли: *у-уруқ (оппоқ), коп-кок (кўм-кўк), сум-сучуг (жуда , (ниҳоятда) ширин), кар-кара (ниҳоятда қора) мўғул тилидаги сав-сауап (оппоқ) , иб-илауап (қип-қизил), пов (ям-яшил), коа-коке (кўм-кўк), бурятча дав-дахап (оппоқ), ив-илан (қип-қизил), хав-хача (қоп-қора) сўзлари бу тилларда бутунлай мос келади.*

Турк тилларида ҳам , мўғул тилларида ҳам амп *корди, олуп кетти, жозуп борди* каби эски ўзбек тилига хос кўмакчи феълли сўз қўшилмалари учрайди.

Туркий ва мўғул тиллари ўртасидаги морфологик яқинлик туркий тилларнинг турли гуруҳларида турлича намоён бўлади.

Ғарбий мўғул тилларида туркий тиллар билан умумий бўлган морфологик элементлар жанубий мўғул тилларидагига нисбатан кўпроқ учрайди.

Қирғиз ва қозоқ тилларидаги мўғулча тил шаклларига мослик ўзбек ва туркман тилларида шу каби шакллар миқдорининг кўпайиши учун асос бўлади. Сибир ва Алтой тилларида бундай элементлар қиёслаб бўлмайдиган даражада кўп. *Тува, ёқут* тилларида ҳам бундай элементлар миқдори нисбатан кўпдирки, бу хусусият ушбу тилларга ўзига хос қиёфа бахш этади.

Турк ва мўғул тиллари ўртасидаги мосликни қирғиз, тува, ёқут тилларига оид қуйидаги мисоллар орқали кўриш мумкин.

|                                                             |                                 |
|-------------------------------------------------------------|---------------------------------|
| Қирғиз тилидаги айрим шаклларнинг мўғул тиллари билан қиёси |                                 |
| -лқа, -ол, -л, -лоқ, -мол.                                  | калқа (эшик)                    |
|                                                             | тонулқа- (юрмоқ)                |
|                                                             | уасалқа (безак)                 |
|                                                             | табилқа (топилма)               |
|                                                             | карол (каровул)                 |
|                                                             | такол (топширик бажарувчи шахс) |
|                                                             | такол (таянч)                   |
|                                                             | болјол (белгиланган муддат)     |
|                                                             | јірқал (нашға)                  |
|                                                             | қозқилон (қўзғолон)             |
|                                                             | самал (ўспирин)                 |

Тува тилида мўғул тили билан умумий бўлган қўшимчалар:

| Қўшимчалар                   | Мисоллар             |
|------------------------------|----------------------|
| -л, -лқа, -лда, -мал, -дувар | Савварилқа -полив    |
|                              | Чурулқа –чизиш       |
|                              | Чілда -йиғим-терим   |
|                              | Казимал-қазилма      |
|                              | Бадувар-биринчи      |
|                              | Дорт-дукар -тўртинчи |
|                              | Он дукар- ўнинчи     |

Тил қариндошлигига оид қайдлар кузатилад экан, шундай хулосага келиш мумкин:

1. Туркий-мўғул-тунгус-манжур тилларидаги алоқадорлик морфологиянинг барча бўлимларида кузатилади: *-(u)д* кўплик қўшимчаси: *точін* (от)- *мочід* (отлар), *валуақин* (шаҳар) –*валуад* (шаҳарлар). пиуид(ўрдақлар) похоч(ўртоқ) поход (ўртоқлар) *tuyal* (бузоқ) *tuwad* (бузоқлар).

2. Конкрет морфологик ўхшашликлар таҳлили турк-мўғул-тунгус проформа(қадимий шакл)ларини тиклаш имконини беради. Тиллардаги параллеллик морфологик элементларнинг бир тилдан икинчи тилга ўтиши натижасида юзага келган.

3. Тилларнинг чатишуви ва ўзарао алоқасида уч хил нуқтаи назар фарқланади. Биринчи қараш тарафдорлари (А.Шлихер, М.Мюллер, қисман А. Мейе) бир тил тизимининг бир қанча тизимларидан иборатлигини истисно этган ҳолда, тиллар чатишувини инкор этадилар. Иккинчи қараш тарафдорлари (Г.Шухардт, В. Пизани, ДЖ. Бонфанте ва бошқалар) учун тиллар чатишуви ҳеч қандай тўсиқ билмайдиган доимий ва кенг қўламли жараён. Учинчи қараш тарафдорлари: (И.В. Бодуэн-де-Куртенэ, В.А. Богородицкий, Л.В.Шерба, Б.Я. Владимирцов, А. Росетти) нисбатан асосли

фикрга эга бўлиб, тиллар чатишувига географик, маданий яқинлик, савдо алоқалари, қабила ва халқларнинг муносабатга киришуви асосида юзага келадиган реал тарихий факт деб қарашади. Шу билан бирга, уларнинг фикрларича, чатишув қайси даражагача бўлмасин, шу чатишган тил асосидаги шаклланган тилни ажратиш мумкин бўлади.

Тилнинг чатишуви ҳақида гап кетганда фақат лексика соҳасидагина эмас, балки фонетика, морфология, синтаксис даражасидаги бир томонлама ёки ўзаро таъсир ҳам назарда юритилади.

Ўзбек-тожик икки тиллилиги А.К. Боровков, Расторгуев томонидан батафсил ёритилган.

Турк-мўғул-тожик тиллари алоқаси ҳақида сўз борганда, даставвал турк-мўғул, тугус-манчжур тиллари тараққиётининг ўзига хос тарихий шароитда юз берганлигини таъкидлаш лозим. Бу тилларда сўзловчи аҳоли баъзан аралаш ҳолда ҳам яшаган.

#### Морфологик бирликлар

Фонемалар каби, морфологик бирликлар ҳам элементар ва комплекс бирликларга бўлинади. Элементар морфологик бирликлар-морфемалардир. Комплекс морфологик бирликларни сўз форма (словаформ)лар ташкил этади.

### 5-§. Сўз туркумлари

Soʻzlarning oʻziga xos belgi-xususiyatlariga koʻra maʼlum guruhga ajratilishi soʻz *turkumlari* deyiladi. Soʻzlar konkret narsa, belgi, harakat, holat kabilarni bildirishi yoki bildirmasligiga koʻra ikkiga boʻlinadi: *mustaqil soʻzlar va yordamchi soʻzlar*.

Soʻz turkumlari jami 12 ta. Ular, asosan, ikki guruhga boʻlinadi.

**I. Mustaqil soʻzlar turkumi:** ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish, **Yordamchi soʻzlar turkumi:** koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama. Modal soʻzlar. Undov soʻzlar. Taqlid soʻzlar. Bu soʻz turkumlari oʻziga xos jihatlari bilan yuqoridagi soʻz turkumlaridan ajralib turadi.

#### Ot

Narsa-buyum, mavhumlik maʼnosini bildiruvchi soʻzlar *ot* deyiladi. Ot quyidagi xususiyatlarga ega.

1. Ot turkumi son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga, turli maʼno hamda vazifa uchun xizmat qiluvchi vazifaviy shakllarga (funksional forma), shuningdek oʻziga xos yasalish tizimiga ega.
2. Ot, sifat, son, olmosh, feʼl va ravish (barcha mustaqil soʻzlar) bilan birika oladi.
3. Ot barcha gap boʻlaklari vazifasida kela oladi (ega, kesim, ikkinchi darajali boʻlaklar, undalma).

#### Otlarda son tushunchasi

Otlarda son tushunchasi birlik va koʻplik orqali namoyon boʻladi. Koʻplikning grammatik koʻrsatkichi: -lar; birlik esa nol koʻrsatkichli formadir (shakldir). Otlarda koʻplik 3 xil usulda ifodalanadi:

- a) morfologik usul: -lar orqali: *bolalar*;
- b) leksik usul: *bir qancha doʻkon, bir toʻda bola*;

v) semantik usul: *xalq, armiya, to`da, olomon, poda*.

Ba`zi takrorlar ham (grammatik usul) ko`plikni ifodalaydi: *Kim-kim keldi? Nima-nima berdi?*

*Dadamlar keldilar* kabi o`rinlarda -lar ko`plik qo`shimchasi hisoblanmaydi.

Ayrim otlar -lar affiksini olmaydi:

1. Planeta, yulduz nomlari (Quyosh, Mars..). Atoqli otlarga -lar affiksi qo`shilganda grammatik ko`plik ifodalanmaydi.

2. Ayrim so`zlar ma`nosiga ko`ra -lar qo`shimchasini olmaydi: *xaloyiq, dada, ona*.

Ba`zan otlarga -lar qo`shimchasi qo`shilsa ham ko`plik ifodalanmaydi, balki turlicha modal ma`nolar anglashiladi.

1. Atoqli otlarga: *Muhayyo, Nodira, Akmal* kabilarga -lar qo`shilganda kishilar guruhi tushuniladi.

2. Mavhum otlarga -lar qo`shilganda uslubiy ma`no ifodalanadi, ma`no kuchaytiriladi: *sevgi, uyqu, aql, kambag`al, ko`ngil. Uyqlarim qochdi*.

3. O`zi bir dona bo`ladigan narsa-buyumlarga -lar qo`shilganda ham ma`no kuchaytiriladi: *bosh, til, burun*.

4. Donalab sanalmaydigan otlarga -lar qo`shilsa, shu predmetning turi, navi, xili anglashiladi: *unlar, yog`lar, suvlar*.

5. Ma`lum kasb-hunar, fan, shu kasb-hunarga, fanga oid sohani bildiruvchi otlar ko`plik shaklida qo`llanmaydi: *o`qituvchilik, dehqonchilik, olimlik, matematika, ximiya, tilshunoslik*.

Quyidagi hollarda otlar doimo birlik shaklida bo`ladi:

1. Izohlovchi-izohlanmish munosabatidagi birinchi so`z: *qiz bola, oshpaz kampir, injener Qodirov*.

2. Sifatlovchi son bilan ifodalansa, har ikki qism ham birlikda bo`ladi: *beshta kitob, o`ntacha sayyoh, uchala bola, bir-ikkita gap, besh kun*.

Otlar nutqda har doim birlik yoki ko`plik shaklida bo`ladi. O`zbek tilida otning son shakli (birlik va ko`plik) sintaktik munosabat bildirmaydi.

Ot turkumidagi so`zning kelishik qo`shimchalarini olib o`zgarishi *turlanish* deyiladi. Kelishik qo`shimchalari turlovchi qo`shimcha hisoblanadi. Kelishiklar quyidagicha:

1. Bosh kelishik: *kim? nima? qaer?*

2. Qaratqich kelishigi: *kimning? nimaning? qaerning?*

3. Tushum kelishigi: *kimni? nimani? qaerni?*

4. Jo`nalish kelishigi: *kimga? nimaga? qaerga?*

5. O`rin-payt kelishigi: *kimda? nimada? qaerda?*

6. Chiqish kelishigi: *kimdan? nimadan? qaerdan?*

Kelishik qo`shimchalari olmoshlar, harakat nomi, jamlovchi songa ham qo`shilishi mumkin. Otlashgan so`zlar (otlashgan sifat, otlashgan sifatdosh) hamda olmoshlar ham kelishik qo`shimchalarini qabul qiladi.

### **Egalik tushunchasi**

|    |        |         |                    |
|----|--------|---------|--------------------|
|    | Birlik | Ko`plik |                    |
| 1. | -(i)m: | -(i)miz | axloqim, axloqimiz |

|   |         |          |                      |
|---|---------|----------|----------------------|
| 2 | -(i)ng  | -(i)ngiz | axloqing, axloqingiz |
| 3 | -i (si) | -I       | axloqi, axloqlari    |

## 6-§. Сифат

Sifat quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Predmet, narsa-buyumning belgisini bildiradi, **qanday, qanaqa** soʻroqlariga javob boʻladi.

2. Sifat bogʻlanib kelgan ot turli soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni qabul qiladi, lekin sifat oʻzgarmaydi: ulugʻvor tabiatni. Koʻrinadiki, sifat otga bogʻlanganda hech qanday oʻzgarishga uchramaydi, yaʼni oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni olmaydi.

3. Sifatlar darajalanadi. Belgining meʼyorida, ortiq yoki kam darajada ekanligini koʻrsatish **sifat darajalari** deyiladi. Sifat darajalari 3 xil: **oddiy, qiyosiy, orttirma daraja**.

1) **oddiy darajada** belgining ortiq yoki kamligi koʻrsatilmaydi: *goʻzal, katta*.

2) **qiyosiy daraja: -roq:** *goʻzalroq, kattaroq*. Qiyosiy daraja ozaytirma daraja deb ham yuritiladi. Ozaytirma daraja **-(i) mtir, -ish; sal, bir oz** kabi vositalar orqali hosil qilinadi: *koʻkimtir, sal yaxshi, qizgʻish*.

3) **orttirma daraja**. Belgining meʼyorida ortiqqligini bildiradi: *qip-qizil, yam-yashil, oppoq, gʻoyatda baland*.

Sifat darajalari 3 xil usul(vosita) yordamida hosil qilinadi:

a) **fonetik usul (vosita):** *yap-yapaloq, qip-qizil*. Urgʻu yordamida ham daraja ifodalanadi: *baland, achchiq, nordon. Qip-qizil, sap-sariq, yum-yumaloq* soʻzlarida ham urgʻu birinchi boʻgʻinga tushadi.

b) **morfologik usul:** *-roq, -ish, -(i)mtir: koʻkroq*.

v) **leksik usul;** *sal, xiyol, bir oz, juda, gʻoyatda, nihoyatda, behad eng*.

4. Sifatlarning maʼno turlari quyidagicha:

1) **belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar:** *kamtarin, mugʻambir, sodda,quvnoq, mehribon, shoʻx, ziqna, yoʻrgʻa, chopagʻon;*

2) **holat bildiruvchi sifatlar:** *badavlat, xursand, maʼyus, keksa, durkun, sovuq, iliq, ochiq, salqin, jimjit, tinch;*

3) **shakl-koʻrinish bildiruvchi sifatlar:** *gavdali, novcha, uzunchoq, yassi;*

4) **rang-tus bildiruvchi sifatlar:** *oq, qora, qizil;*

5) **hajm-oʻlchov bildiruvchi sifatlar:** *keng, tor, uzun, yaqin, katta, ogʻir, engil;*

6) **maza-taʼm bildiruvchi sifatlar:** *shirin, bemaza, nordon, achchiq.*

7) **hid bildiruvchi sifatlar:** *xushboʻy, badboʻy, qoʻlansa.*

5. **Tuzilish** jihatidan sifatlar *tub (asliy)* yoki *yasama (nisbiy)* boʻladi.

**Tub sifatlar:** *oq, katta, uzun, qora, yosh, keng,ogʻir*. Tub sifatlar morfemalarga ajralmaydi.

Soʻz yasashning biror usuli bilan hosil boʻlgan sifatlar **yasama sifatlar** deyiladi. Yasama sifatlar sodda yoki qoʻshma boʻladi: kuchli, iliq, aqlli, xushsiz, havo rang, ishyoqmas, qiziqqon.

6. Sifat ikki usul bilan yasaladi: **affiksatsiya** ( qoʻshimcha qoʻshish bilan) va **kompozitsiya** ( soʻzlarni qoʻshish orqali).

1. **Affiksatsiya usuli:** bu usulda asosan otdan, feʻldan, baʻzan ravishdan sifat yasaladi.

a) otdan sifat yasovchi qoʻshimchalar: **-li; ser- dor, ba-, siz, -gi (-ki, -qi), -y (- viy), -i** ( qishloqi, chapani, zardoʻzi, kashmiri, xitoyi,) - **chan, -simon, -chil, -parvar, -kor, -gar, -mand, ildoq** (liqildoq, qaqildoq, shaqildoq, bijildoq, soʻlqildoq, chiyildoq, likildoq, boʻrsildoq. Bu affiks taqlid soʻzlardan sifat yasaydi) - *vor, -parast, be-, -don, -bad, xush-, -namo, -cha* ( buxorocha, oʻzbekcha).

b) feʻldan sifat yasovchi: **-gin (-gʻin, -kin, -gʻun, -qin, -qun)** gir(-gʻin, -kir, -qir, -qur), **-choq(-chiq, -chak,)** **-k(-ik, -uk, -ak), -q(-iq, -uq, -oq), -ma, -qoq, -gʻoq, -agʻon, -ongʻich, -ovuch** ( tepongʻich, qulongʻich, hurkovuch, iskovuch), **-in, -no -bar, -bop, -kash, -shumul, -loq.**

2. **Kompozitsiya usuli** bilan qoʻshma sifatlar hosil qilinadi: Qoʻshma sifatlar tarkibi quyidagicha boʻladi:

- a) sifat-sifat: xomsemiz, olachipor, qorasovuq;
- b) sifat-ot: qiziqqon, balandparvoz, qimmatbaho;
- v) ot-ot: otashqalb, jigar rang, bodomqovoq;
- g) ravish-ot: kamqon, kamgap, hozirjavob;
- d) ravish-ar qoʻshimchali sifat-dosh: tezyurar, tezotar;
- e) ot-ar qoʻshimchali sifat-dosh: tinchliksevar;
- j) son-ot ; (-lama): beshkokil, ikkiqat, ikkiyuzlama;
- z) ot-aro: xalqaro, millatlararo, qitʼalararo;

### **Son**

Otga bogʻlanib, uning miqdorini, sanogʻini, tartibini; otga bogʻlanmagan holda mavhum miqdor tushunchasining nomini bildirgan soʻzlar turkumi *son* deyiladi.

Sonlar harf bilan yoziladi (besh, etti) yoki arab raqami (2, 7, 8), rim raqami (V, VII, XXI) bilan koʻrsatiladi. Son quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Son boshqa soʻz turkumidan yasalmaydi. Son yasovchi qoʻshimchalar ham mavjud emas. Sonda soʻz yasalishi yoʻq.

2. Sonning maʼno turlari va modal shakllari maxsus affikslar qoʻshish bilan yasaladi: uchta, oltov.

3. Son oʻzicha turlovchi affikslarni qabul qilmaydi, sifatlovchi olmaydi, oʻzi otning sifatlovchisi boʻlib keladi.

4. Son miqdor tushunchasining nomini anglatganda va otlashganda kelishik, egalik affikslarini qabul qiladi, ot bajargan vazifada keladi: Sakkiz ikkiga teng boʻlinadi.

5. Son hisob soʻzlari-numerativlar bilan ham qoʻllanadi. Son gapda aniqlovchi boʻlib keladi. Sonlar maʼno va grammatik xususiyatlariga koʻra dastlab ikkiga boʻlinadi: 1) miqdor son; 2) tartib son.

**Miqdor sonlar** narsa-buyumni sanash, donalash, taqsimlash yoki taxminlab koʻrsatish uchun qoʻllanadi. Miqdor sonlar quyidagi xususiyatlari bilan tartib sonlardan farqlanadi:

-miqdor sonlar oʻziga xos morfologik koʻrsatkichlarga ega. Tartib sonlar -(i)nchi orqali yasaladi;

-miqdor sonlar hisob soʻzlari (numerativlar) bilan birga qoʻllanadi. Tartib sonlar numerativlar bilan qoʻllanmaydi;

-miqdor sonlar juftlashib keladi, tartib sonlar juft holda kelmaydi;

-miqdor sonlar birikma holda (uchdan bir) ishlatiladi; tartib sonlar birikma holda kelmaydi.

-miqdor sonlar -lar affiksini olib, taxminiy miqdorni bildiradi, tartib sonlar, -lar affiksini olib otlashadi: *Birinchilarga mukofot beriladi.*

Miqdor sonlar quyidagi turlarga boʻlinadi:

a) **sanoq son**: donalab koʻrsatish, sanash, taqsimlab koʻrsatish maʼnolarini ifodalaydi: uch, ikki, besh, etti.

**Dona son**: -ta: oʻnta, yigirmata, uchta. **Taqsim son**: -tadan: beshtadan, uchtdan. Dona sonni takrorlash orqali ham taqsim son hosil boʻladi: beshta-beshta. Dona va taqsim sonlar sanoq son hisoblanadi;

b) **jamlovchi son**: -ov, -ala, -ovlab, -ovlashib, -ovlan: uchov, ikkala, ikkovlab, uchovlashib, oltovlon. Jamlovchi son jamlikni bildiradi.

v) **chama son**: -cha (-ta bilan yasalgan sanoq songa qoʻshiladi: uchta), -larcha, -lab: beshtacha, oʻnlarcha, yuzlab. Sanoq sonlar juft holda kelganda, sanoq songa -lar qoʻshilganda ham chama son hosil boʻladi: uch-toʻrt, beshlar. Chama son noaniq, taxminiy miqdorni koʻrsatadi.

g) **kasr son**: butunning qismlarini ifodalaydi: toʻrttdan ikki, uchdan bir.

*Yarim (yorti), chorak, nimchorak* soʻzlari ham kasr son hisoblanadi.

a) **aralash son**: kasr sonlar butun sonlar bilan birgalikda aralash sonni hosil qiladi: uch butun oʻndan besh, besh yarim.

b) **tartib son** narsa buyumning aniq, konkret miqdorini, ketma-ketligini ifodalaydi: -(i)nchi: beshinchi. Tartib sonlar predmetning miqdoriga koʻra belgisini bildiradi.

Sonlar tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi: *sodda son* va *qoʻshma son*.

Sodda sonlar bir oʻzakdan iborat boʻladi: bir, besh, sakkiz. Qoʻshma son ikki va undan ortiq sonlardan iborat boʻladi: oʻn besh, oʻn toʻrt.

Aslida ikki oʻzakdan tuzilib, hozirgi kunda bir oʻzak tarzida qaraladigan *oltmish* (olti-mish), *sakson* (sakkiz oʻn), *toʻqson* (toʻqqiz oʻn) sonlari sodda hisoblanadi.

### **Hisob soʻzlari (numerativlar)**

Hisob soʻzlari narsa-buyumning aniq miqdorini koʻrsatmay, shu narsani hisoblashda uning qaysi guruhga oidligini aniqlash uchun ishlatiladi.

Hisob soʻzlari asosan ot turkumidagi soʻzlardan iborat boʻladi: *dona, nusxa, tup.*

**Qadimda ishlatilgan hisob soʻzlari:** qadoq, jon, tanob, gaz, savjin, paysa, taxta, enlik, soʻlkavoy, tosh, pud, mahal (vaqt), yumaloq.

**Keyingi davrlarda kirib kelgan (boshqa tillardan) hisob soʻzlari:** mehnat kuni, gektar, kubometr, kilovatt-soat, sotix, pachka, metr, kilo minut, gradus, sentr, par, ekzemplar.

## 7-§. Олмош

Ot, sifat, son, ravish oʻrnida qoʻllanib, ularni koʻrsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi soʻz turkumi **olmosh** deyiladi. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki faqat ularni koʻrsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmosh quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Olmoshda yasalish yoʻq, yaʼni olmosh yasalmaydi. Ammo olmoshlardan sanoqli affiksalar orqali ot, ravish, feʼl yasalishi mumkin: *kamlik, manmanlik, sensiramoq, mensimoq (mensimaslik), shunday*.

2. Olmoshlar baʼzi soʻzlarga qoʻshilib, boshqa soʻz turkumiga koʻchishi mumkin: *qaerda, ozmuncha, oʻzboshimcha, manmanlik qilmoq*.

3. Olmoshlar otlarga xos soʻz oʻzgartiruvchilar bilan oʻzgaradi, yaʼni olmoshlar turlanadi. Olmoshlar kelishik affiksalarini oladi va ular belgisi qoʻllanadi.

4. I, III shaxs kelishik olmoshlari egalik affiksini (qoʻshimchasini) olmaydi.

*Unisi, shunisi, qaysisi* olmoshlari tarkibida ikkitadan egalik qoʻshimchasi mavjud.

5. Olmoshlar gapda bajargan vazifasiga koʻra toʻrt xil boʻladi:

a) *ot xarakteridagi olmoshlar* (ot oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar): *men, sen, biz, siz, ular, kim, nima, hech kim, hech nima, allakim, kimdir*;

b) *sifat xarakteridagi olmoshlar*: *qanday, qaysi, bu, shu, shunday, baʼzi, butun, qancha, hech qanday, hech qaysi, allaqaysi, allaqanday*;

v) *son xarakteridagi olmoshlar*: *necha, nechanchi, qancha, shuncha, oʻshancha*;

g) *ravish xarakteridagi olmoshlar*: *nega, qalay, qani, hech qachon, qachon*.

Olmosh gapda ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi boʻlib keladi. Kishilik olmoshlari, oʻzlik olmoshlari kelishik qoʻshimchalarini oladi. Kishilik va koʻrsatish olmoshlari juft holda ham keladi. Koʻrsatish, soʻroq, oʻzlik, belgilash olmoshlari takror holda ham qoʻllanadi.

6. Olmoshlar tuzilishiga koʻra ikkiga boʻlinadi: sodda va qoʻshma olmoshlar.

*Sodda olmoshlar* bir oʻzakdan tuzilib, tub yoki yasama boʻladi: *men, sen, u, biz, oʻsha, bunday, shunday*. Yasovchi qoʻshimchani olgan olmoshlar boshqa turkumga koʻchadi: *oʻz-oʻzicha (ravish), sizsiramoq (feʼl)*.

*Qoʻshma olmoshlar* birdan ortiq oʻzakning birikishidan hosil boʻladi:

a) olmosh-boshqa turkumdagi soʻz: *mana bu, mana shu, qay vaqt, ana shu, allaqaysi*;

b) olmosh-olmosh: *har kim, har qanday, har nima, hech kim, hech qaysi*.

Olmoshlar takrorlanib, juftlanib kelganda koʻproq boshqa turkumga ravishga (oʻzidan-oʻzi, oʻsha-oʻsha), feʼlga (sansanlamoq) koʻchadi.

Олмошлар туркий тилларда фрнетик ўзгаришлар билан кузатилади. Масалан, бўлишсизлик олмошларининг тува тилидаги кўринишлари куйидагича:

|              |               |
|--------------|---------------|
| Kim daa      | hech kim      |
| Chuu daa     | hech nima     |
| Kandig daa   | hech qaysi    |
| Kajan daa    | hech qachon   |
| Kayda daa    | hech qayerda  |
| Kaynin daa   | hech qayerdan |
| Kay naar daa | hech qayerga  |

## 8-§. Феъл

Ish-harakatni bildirgan soʻzlar turkumi *feʼl* deyiladi. Feʼl quyidagi xususiyatlarga ega.

Feʼl tuslanadi. Feʼl turkumidagi soʻzlarning shaxs-son qoʻshimchalarini olib oʻzgarishi *tuslanish* deyiladi. Shaxs-son qoʻshimchalari *tuslovchi qoʻshimchalar* deyiladi. Tuslanish feʼlning mayl, zamon va shaxs-son formalarini olib oʻzgarishidir.

### Shaxs-son tushunchasi (kategoriyasi)

Shaxs-son tushunchasi feʼl anglatgan harakat-holatning bajaruvchiga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. I shaxs-soʻzlovchi;

II shaxs-tinglovchi, III shaxs-nutq jarayonida ishtirok etmayotgan shaxs.

|     |                           |                         |
|-----|---------------------------|-------------------------|
| I   | shaxs: bordim             | bordik, boryapmiz       |
| II  | shaxs: bording, boryapsan | bordingiz, boryapsiz    |
| III | shaxs: bordi, boryapti    | bordilar, boryapti(lar) |

### Zamon tushunchasi

Zamon tushunchasi harakat-holatning nutq vaziyatiga munasabatini ifodalaydi. Feʼlning uch zamoni farqlanadi: oʻtgan zamon (nutq jarayonigacha boʻlgan harakat); hozirgi zamon (nutq jarayonida sodir boʻlayotgan harakat), kelasi zamon (nutq jarayonidan keyin sodir boʻladigan harakat).

1. Oʻtgan zamon feʼllari quyidagicha:

- a) aniq oʻtgan zamon shakli-di: yozdik, koʻrdik.
- b) uzoq oʻtgan zamon shakli -gan: yozgandingiz, koʻrgandingiz.
- v) oʻtgan zamon hikoya shakli-(i) b: yozibsiz, koʻribmiz; yozib edik, koʻrib edik.
- g) oʻtgan zamon davom feʼli-a(r)-edi, (-mas-edi): koʻrinar edi, koʻrinmas edi.

2. Hozirgi zamon feʼllari quyidagicha:

- a) aniq hozirgi zamon shakli -*yap*-shaxs-son affiksi: -yotir, -yotib; boryapman, borayotirman, borayotibman; -moqda: bormoqda.
- b) hozirgi- kelasi zamon shakli: kelasi zamon aniq shakli: -a, -y; yozadi; ishlaymiz; kelasi zamon gumon shakli; -(a)r, (-mas); yozarman, yozmasman.

3. Kelasi zamon shakllari quyidagicha:

- a) aniq kelasi zamon shakli -ajak(-yajak): borajakmiz, oʻqiyajakmiz; -gu(-gʻu, -ku, -qu): kelgum(dir), kelgumiz, kelgusi;
- b) kelasi zamon maqsad shakli-moqchi: kelmoqchiman, aytmoqchisan;

v) kelasi zamon gumon shakli: -r, -ar: o`qirman, boraman.

Ba`zi hollarda bir zamon shaklining boshqasi o`rnida qo`llanishi uchrab turadi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiy holatdan anglashilib turadi. Masalan: *Hozir qorong`ida qayoqqa bordigu, nimayam qildik*-kelasi zamon. *Shundan so`ng bilmadim, qancha vaqt shirin xayollar osmonida qanot qoqib yurdim*-hozirgi zamon. *Bugun kechqurungi poezd bilan jo`nab ketyapmiz*-kelasi zamon.

Fe`llar ma`no va leksik- grammatik xususiyatlariga ko`ra ikki xil bo`ladi: 1) mustaqil fe`llar; 2) yordamchi fe`llar.

1. **Mustaqil fe`llar** mustaqil, lug`aviy ma`no bildiradi, gapning biror bo`lagi vazifasida keladi: keldi, aytdi, o`qidi.

2. **Yordamchi fe`llar** harakat bildirmaydi (mustaqil ma`noga ega emas). Ular turli grammatik ma`no ifodalash uchun xizmat qiladi. Yordamchi fe`llar uch xil:

a) bog`lama vazifasida keluvchi, so`z yasashida ham ishtirok etuvchi yordamchi fe`llar: *bo`l, qil, ayla, et*;

b) fe`llarga birikib, turli qo`shimcha ma`no ifodalovchi fe`llar yoki ko`makchi fe`llar: *o`qib, chiqmoq, aytib bermoq*. Ko`makchi fe`llar turli modal ma`nolarni ifodalaydi. Hozirgi o`zbek tilida butunlay ko`makchiga aylangan (mustaqil ma`nosini yo`qotib, faqat ko`makchi sifatida qo`llanadigan) fe`l yo`q. Mustaqil fe`llar ko`makchi vazifasida ham qo`llanadi. Ko`makchi fe`l bog`lanib kelgan fe`l etakchi fe`l deyiladi: gapirib (etakchi) bermoq (ko`makchi). Ko`makchi fe`llar etakchi fe`lga asosan *-i (b), -a, -y* ravishdosh qo`shimchalari yordamida birikadi. Ko`makchi fe`l etakchi fe`lga ravishdosh orqali birikkanda, tuslovchi qo`shimchalar ko`makchi fe`lga qo`shiladi: *yozib oldik*. Etakchi fe`lga ko`makchi fe`l grammatik shaklsiz (qo`shimchasiz) birikishi ham mumkin: *yozdi-oldi, aytdi-qo`ydi*.

Феълга хос грамматик категорияларнинг айрим туркий тиллардаги ифода шакллари куйидагича:

Тува тилида: шарт майли кушимчаларнинг ўзига хослиги кузатилади: *барзымза* "борсам", шунингдек, шеваларда қадимги шаклларнинг ишлатилади: *бардым эрза* "борсам";

Чуваш тилида: буйрук-истак майлининг булишсиз шакли *-ан* ёрдамида ҳосил булади ( бошка туркий тилларда *-ма//ме*);

Қозоқ тилида: а) сифатдошнинг *-атъын/-этйин/-йтъын/-йтйин* (нўғай тилидаги *-атаган/-этэгэн*, қорақалпоқ тилидаги *-атўгун/-этўгун*) шакли қўлланади;

б) сифатдошнинг *-аҗсақ/-эҗсэк ёки -айақ/-эяақ* шакли учрамайди.

Ўғуз-турман гуруҳи тиларида ўтган замон сифатдош қўшимчаси *-ан//эн, (-ҳан//-ган)* , ўғуз-салжук гуруҳи тилларида *-дыш//-дик, -мыш/миш*; сифатдошнинг боелишсиз шакли ( келаси замон) *мар//мэр, -маз//мэз* тарзида қўлланади: (ўғуз-салжук кичик гуруҳи тилларида *-мар//мэр*) шакллари қўлланмайди;

Ҳозирги замон шакли ўғуз-туркман гуруҳи тилларида *-йар*, ўғуз-салжук гуруҳи тилларида *-йор* шаклида қўлланади;

Келаси замон сифатдоши ўғуз-туркман гуруҳи тилларида *а* орттирилиб қўлланади (-*ажас*ʃ/-*эжэ*к), ўғуз-салжук кичик гуруҳи тилларида эса *а* тушиб қолади (-*жас*ʃ//*жэ*к);

Равишдош шакллари охирида келадиган *й* ўғуз-туркман гуруҳи тилларида тушиб қолади; ўғуз-салжук кичик гуруҳи тилларида сақланади. (*оқуйун, вэрмэйин*).

Туркман тилида ҳозирги замон шаклидаги феъл шаклининг куйидаги кўриниши фаол ишлатилади:

*а... лэмэн* (Касар овулида)

*а...ламэн* (Маниш овулида)

*а...лам ан* (Нохур овулида)

## 9-§. Равиш

Ish-harakatning, holatning belgisini, belgining belgisini bildiruvchi soʻz turkumi *ravish* deyiladi. Ravish morfologik jihatdan oʻzgarmas boʻlib, asosan feʼllarga bogʻlanib keladi, hol vazifasini bajaradi.

I. **Ravishlarning maʼno turlari** olti xil: holat ravishi, miqdor-daraja ravishi, oʻrin ravishi, payt ravishi.

1. **Holat ravishi:** ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildiradi; qanday? qay holda?, qay tarzda? soʻroqlariga javob boʻladi. Holat (tarz) ravishlari: tez, sekin, yayov, piyoda, bekorga toʻsatdan, qoʻqqisdan, astoydil, doʻstona, qahramonlarga, yuzma-yuz, ochiqdan-ochiq, zoʻrgʻa.

2. **Miqdor-daraja ravishi:** harakat-holatning miqdoriy belgisini yoki belgining ortiqqligini bildiradi: qancha? qanday? soʻroqlariga javob boʻladi: koʻp, moʻl, ancha, kam, bir oz, picha, hiyla, sal, juda, eng, gʻoyat, nihoyat, oʻta.

3. **Oʻrin ravishi:** harakat va holatning bajarilish oʻrmini, harakat yoʻnalgan tomonni bildiradi; qaerga? qaerdan? qaerda? soʻroqlariga javob boʻladi: uzoqda, pastda, tubanda, oldinda, unda-bunda, yuqoridan, quyidan, yaqindan, orqadan, toʻgʻriga, toʻgʻridan, yuqoriga, ilgari, olgʻa.

4. **Payt ravishi** harakat va holatning bajarilish paytini bildiradi; qachon? qanchadan beri? soʻroqlariga javob boʻladi: hozir, boya, bugun, kecha, avval, oldin, endi, erta, indin, saharlab, ertalab, doim, hali-beri.

5. **Maqsad ravishi** ataylab, joʻrttaga, qasddan.

6. **Sabab ravishi** noiloj, noilojlikdan, atayin.

## 10-§. Туркий тилларда грамматик маънони ифодалаш усуллари

Grammatik son kotegoriyasi. Gramatik son kotegoriyasi odatda birlik va koʻplikdagi formalarning oppozitsiyasidan tashkil topadi. Birlik turkiy tillarda nol koʻrsatkichli boʻlsa, koʻplik-lar va uning turli variantlari yordamida ifodalanadi, lekin turkologiyada turkiy tillardagi grammatik son kotegoriyasi formalarini boshqacha ifodalash ham mavjud. Bu nuqtayi nazarga koʻra turkiy tillarda grammatik son kotegoriyasi “birlik” va “koʻplik” formalariga ega emas. Turkiy tillarda –lar affiksi olmagan otlar umumlashgan predmet nomini bildiradi Turkiy

tillardagi ko`plik formasi hisoblangan –lar, ko`plik ma`nosini ifodalashdan tashqari, boshqa funksiyalarni ham bajarish xususiyatiga ega.

#### Морфологик birliklar

Фонемалар каби, морфологик birliklar ҳам элементар ва комплекс birliklarga бўлинади. Элементар морфологик birliklar - морфемалардир. Комплекс морфологик birliklarni сўз форма (словаформ)лар ташкил этади.

Элементар морфологик birliklar грамматик маънони ифодалаш йўллари.

1 Элементар морфологик бир бошқа тиллардаги шу ҳодисалардан фарк қилади. Уларнинг ўзига хослиги агглютинация билан боғлиқ.

Агглютинация тиллардаги аффиксларда мустақил сўзларнинг излари кўринади, яъни кўпгина аффикслар мустақил сўзлардан юзага келган. Бундай сўз формаларининг прототиплари сўз бирикмаси (синтактик бирикмалар) бўлган. Натижада ҳоким сўз ўзак морфемага, тобе сўз аффиксал морфемага айланган.

2. Туркий тилларда агглютинатив усулда грамматик маъно ифодалаш билан бирга флексия асосидаги шакллар ҳам учрайди. (ички флексия) Масалан: кайни “свекор”, тест, // кайна “тица”, бис “арраламоқ, кесмоқ” // бис – “кесмоқ” (резать) , ата (отец), оти (папа, она, (мать) // ани (мама). Туркий тиллардаги флексия морфологик типнинг шаклланишига бевосита алоқадор бўлмаган муайян фонетик қонуниятларнинг натижасидир.

1.3 Грамматик маъно ифодалашнинг яна бир усули ўзгартиришдир: *алма-* (феъл) - *алиб* (взятие); *барма-* ( феъл) - *барма* (хождение); *салма* - (феъл) - салма (жойлаш); азерб. *ахшам* (кеча) - ахшам (кечқурун): *sabah* (эрталаб) - *sabah* (эртага).

Турк тилида: аркадашим ( ўртоғим) - аркадашим ( мен ўртоқман).

4. Грамматик маъно ифодалашнинг яна бир усули ўзакни такрорлашдир. *һарі –һарі* (сап-сарик), *kigil-kigil* (қип-қизил), *јашил-јашип*( ям-яшил): *о бана душман-душман баки јорду* (он враждебно смотрел на меня); *тоғ-тоғ олтин*; *арава-арава зар*.

Тўлиқ бўлмаган такрор: *қип-қизил*, *јам-јашил*.

*Киз-миз* (қизлар), *табак -мабак* ( уй-рўзғор ашёлари); *копди коп*; *аздин аз*.

5. Аналитик формалар ёрдамида грамматик маъно ифодаланади: *јікіліп кэтэ јаздим* ( йиқилиб кета ёздим), *отуп бара јам*.

## 11-§. Ёрдамчи сўзлар

*Yordamchi so`zlar turkumiga ko`makchi, bog`lovchi, yuklama* kiradi. *Yordamchi so`zlar mustaqil (leksik) ma`no bildirmaydi, faqat grammatik ma`no ifodalash uchun xizmat qiladi.*

**Ko`makchi.** Gapda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo`llanadigan so`zlar *ko`makchilar* deb ataladi. Ko`makchi o`zi bog`lanib kelgan so`zdan keyin kelib, so`zlar orasidagi birgalik,

payt, sabab, maqsad kabi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Ko`makchi ikki xil bo`ladi: 1.Sof ko`makchi 2.Ko`makchi vazifasidagi so`z (funktional ko`makchi).

1. *Sof ko`makchi* mustaqil ma`no anglatmaydi, kelishik affikslariga yaqin turadi. Sof ko`makchilar quyidagicha: a) asl ko`makchilar: bilan, uchun, qadar, sari, sayin; b) ot ko`makchilar: burun, ilgari, keyin, boshqa, tashqari; v) fe`l ko`makchilar: qarab, ko`ra, qaraganda, yarasha, boshlab.

2. Ko`makchi vazifasidagi so`zlar: old, o`rta, yon, orqa, tomon, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o`rin, yoqa, qosh.

**Bog`lovchi.** Qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar va gap bo`laklarini bog`lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so`zlar *bog`lovchi* deyiladi. Bog`lovchilar qo`llanishiga qarab yakka bog`lovchilar va takroriy bog`lovchilarga ajratiladi.

*Yakka bog`lovchilar:* va, hamda, lekin, ammo, biroq. -ki (-kim), chunki, agar, toki, balki, go`yo, basharti, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, gar.

*Takroriy bog`lovchilar:* dam., dam..., ba`zan,..., ba`zan, ham., ham, bir..., bir, yoki..., yoki, yo., yo, goh., goh, xoh., xoh.

Bog`lovchilar vazifasiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

- 1) teng bog`lovchilar;
- 2) ergashtiruvchi bog`lovchilar.

I. *Teng bog`lovchilar* grammatik jihatdan teng bo`lgan gap bo`laklarini, teng munosabatli sodda gaplarni bog`laydi. Teng bog`lovchilar a) uyushiq bo`laklarni b) qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog`lash uchun xizmat qiladi. Teng bog`lovchilar quyidagicha:

1. Biriktiruv bog`lovchilari: va, hamda (bilan, ham, -u,-yu,-da).
2. Zidlov bog`lovchilari: ammo, lekin, biroq, balki, holbuki (-u,-yu).
3. Ayiruv bog`lovchilari: yo, yoxud, yoki, yoinki, goh..., goh, ba`zan...,ba`zan, xoh..., goh..goh, dam..., dam, bir..., bir.

II. *Ergashtiruvchi bog`lovchilar* ergashgan qo`shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog`laydi, tobelik munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Ergashtiruvchi bog`lovchilar quyidagicha:

1. Aniqlov bog`lovchilari: ya`ni,-ki,-kim
2. Sabab bog`lovchilari: chunki, shuning uchun, negaki, zeroki, nainki.
3. Shart (va to`siqsizlik) bog`lovchilari: agar, agarda,basharti, agarchi (garchi), garchand, modomiki.
4. Chog`ishtiruv bog`lovchilari: go`yo, go`yoki.

**Yuklama.** Ayrim so`z yoki gapga qo`shimcha ma`no ifodalash uchun qo`llanadigan yordamchi so`z *yuklama* deyiladi. Yuklama tuzilishi jihatidan ikki xil: a) affiks holidagi yuklamalar:-mi,-chi,-a (-ya),-da,-u (-yu),-oq (-yoq)-gina (-kina,-qina): b) so`z holidagi yuklamalar: axir, faqat, xuddi, nahotki, hatto, hattoki.

Affiks holidagi yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi; faqat -mi,-oq (yoq),-gina yuklamalari so`zga qo`shib yoziladi: borasanmi?

## **11-§.Тақлид сўзлар (мимемалар). Сономимема ва видеомимемалар**

Taqlid soʻzlar ikki xil: 1. Holatga (obrazga) taqlidni bildiruvchi soʻzlar: yalt, yarq, milt-milt, bilq, dir-dir.

2. Tovushga taqlidni bildiruvchi soʻzlar: tars, turs, chars, gumbur-gumbur.

Taqlidiy soʻzlar tuzilishiga koʻra yakka, takror, juft holda boʻladi (yalt,qars-qars, chars-churs, taka-tum-tak).

Taqlid va undov soʻzlari nomlash xususiyatiga ega emas. Taqlid soʻzlardan ot, feʼl va boshqa turkum soʻzlari yasaladi: shaq-ildoq, hiq-ildoq, yaltira-q, yiltira-q, miltira-q.

Taqlid soʻzlar gapda asosan, aniqlovchi, hol vazifasida keladi. Otlashganda esa quyidagi vazifalarni bajaradi: a) ega vazifasida: *Qoʻyning “ba-a”si eshtildi. Musichaning gʻuv-gʻuvi eshitildi.* b) toʻldiruvchi: *Oʻz gʻuv-gʻuviga oʻzi shaydo boʻlgan guzarga yaqin qoldi.*

## 12-§. Туркий тиллар синтаксиси

Turkiy tillarning ayrim sintaktik xususiyatlari. Turkiy tillarda sifatlovchi sifatlanmishiga bitishuv usuli bilan tobelanadi. Turkiy tillarda aniqlovchning yana bir turi borki, u tilshunoslikda turkiy izofa deb yuritiladi. Turkiy tillarda gap boʻlaklari, boshqa til oilasidagiga, masalan hind – evropa tillari oilasidagiga nisbatan oʻzining muntazam joylashish tartibiga ega. Turkiy tillarning boshqa til oilalaridan farq qiladigan tomoni shundaki, bu tillarda qoʻshma gapning ergashgan qoʻshma gap tipidan tashqari, funksional va struktural jihatdan boshqa til oilalaridagi ergash gapga teng keluvchi ravishdosh, sifatdosh oborotlari keng tarqalgan va taraqqiy qilgan.

Mahmud Koshgʻariyning “Kitobi javohir an-nahv fi-l-lugʻat at-turk” nomli ikkinchi asarida turkiy tillar sintaksisi ustida bahs yuritiladi.

## 13-§. Ган турлари

Soʻzlar vositasida anglatilgan fikr *gap* deyiladi. Muomala vositasining eng kichik birligi gap hisoblanadi. Gap nisbiy tugallangan fikrni bildiradi. Gap quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Gap muomala vositasining eng kichik, asosiy birligidir.
2. Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi.
3. Grammatik shakllangan boʻladi (bosh va ikkinchi darajali boʻlaklardan iborat).
4. Tugallangan ohang bilan aytiladi. Gap quyidagicha tasniflanadi.

**I. Ifoda maqsadiga koʻra** quyidagi turlarga boʻlinadi: darak gap, soʻroq gap, buyruq gap.

1.**Darak gap** xabar, darak mazmunini bildiradi. Yozuvda darak gapning oxiriga nuqta qoʻyiladi: Majlislar zaliga talabalar yigʻilishdi.

2.**Soʻroq gap** soʻzlovchi oʻzi bayon qilgan fikriga suhbatdoshining munosabatini bilishga qaratilgan boʻladi. Soʻroq gaplar quyidagicha shakllanadi; a) soʻroq olmoshlari yordamida: Oʻsha vaqtda necha yoshda eding? b) -mi, -chi, -a, -ya (soʻroq yuklamalari) ishtirokida: Manzura kelmadimi? v) soʻroq ohangi yordami bilan; -Uyga mehmon keldi. -Mehmon keldi?

So`roq gaplar asosan dialoglarda (birdan ortiq kishining o`zaro muloqotida) qo`llanadi. So`roq gapning oxiriga so`roq belgisi qo`yiladi. So`roq gaplarning ba`zi ko`rinishlari javob talab qilmaydi; bunday gaplarning o`zida yashirin tarzda javobi bo`ladi. Bunday so`roq gaplar  *ritorik so`roq gaplar* deyiladi. Ritorik so`roq gaplar mazmuniga ko`ra ikki xil:

a) tasdiq mazmunidagi ritorik so`roq gaplar. Bunday gaplarning berilishi inkor shaklida bo`ladi: Onani kim sevmaydi? (Onani hamma sevadi);

b) inkor mazmunidagi ritorik so`roq gaplar. Bunday gaplar tasdiq shaklida bo`ladi: Tinch uyda janjal bo`lishini kim istaydi? (Tinch uyda janjal bo`lishini hech kim istamaydi).

3. **Buyruq gap** buyruq, undash, taklif, maslahat, chaqiriq, iltimos, yalinish mazmunida bo`ladi: Yomon kunga qo`yma, o`rtoqjon, Toki yig`ib olayin darmon.

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Buyruq gaplarning kesimi asosan buyruq maylidagi fe`l bilan ifodalanadi. Buyruq gaplarning oxiriga ko`pincha undov, ba`zan nuqta qo`yiladi.

**II. Gap emotsionallikka ko`ra** (his-tuyg`uni ifodalashiga ko`ra) his-hayajon gap (undov gap), his-hayajonsiz gaplarga ajraladi. His-hayajonsiz gaplar darak, so`roq, buyruq ohangi bilan aytiladi. His-hayajon gaplar oxiriga undov belgisi qo`yiladi. His-hayajon gaplar eh, oh, e, uh, o, uf, obbo, ey kabi undov so`zlari orqali hosil qilinadi. *Eh, tabiat qanday go`zal!*

**III. Gap modallikka ko`ra** yoki voqelikka munosabatiga ko`ra tasdiq va inkor mazmunida bo`ladi. Tasdiq va inkor tilda turli vositalar yordami bilan ifodalanadi (leksik, morfologik, sintaktik, intonasion vositalar). Gapning barcha turi tasdiq yoki inkor xarakteriga ega bo`ladi; Bodom gulladi.-Yomg`ir yog`madi. Qo`shiq aytasizmi?-Qo`shiq aytmaysizmi?

**IV. Gaplar tuzilishiga ko`ra** ikki xil bo`ladi: sodda gaplar va qo`shma gaplar.

## 14-§. Туркий тилларнинг лексик хусусиятлари

Tildagi barcha so`zlar uning lug`at boyligini tashkil etadi. Tilning lug`at boyligi ikki manba-ichki va tashqi manba orqali ortib boradi. Tilning ichki imkoniyatlari orqali so`z yasash (qo`shimcha qo`shish va so`zlarni qo`shish orqali); shevalardan so`z olish ichki manba, boshqa tildan so`z olish tashqi manba hisoblanadi.

Boshqa tillardan so`z olish natijasida o`z qatlam va o`zlashgan qatlam farqlanadi. O`zbekcha, turkiycha so`zlar o`z qatlam nomi bilan, boshqa tildan olingan so`zlar o`zlashgan qatlam atamasi bilan yuritiladi.

**O`z qatlam.** O`z qatlamga turkiy tillarga oid bo`lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo`lgan so`zlar kiradi. O`zbek tili lug`at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo`lgan so`zlar anchagina: tosh, tog`, er, bosh, suv, til, qo`l, kishi, bola; oq, qora, qizil, ko`k, sariq, yashil, yaxshi, yomon; bir, ikki, uch, besh, olti, etti, yuz, ming: men, sen, u, biz, siz, bu, shu; kel, ol, bor, tur, qara; ildam, erta, indin, ilgari.

Turkiy tilning bevosita o`ziniki bo`lgan so`zlar tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil bo`lgan so`zlardan iborat. Bunda uch holat kuzatiladi:

1) asli turkiy soʻzlardan shu tildagi affiks (qoʻshimcha)lar yordamida yasalgan soʻzlar: *qatnashchi, terimchi, ogʻmachi, birlashma*;

2) boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarga turkiy qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida hosil boʻlgan soʻzlar turkiy hisoblanadi;

a) arabcha soʻzlardan: *rahbarlik, mehrli*;

b) tojikcha soʻzlardan: *mardlik, goʻshtli*;

v) ruscha soʻzlardan: *limonli, sportchi*;

3) boshqa tildan oʻzlashgan soʻzga oʻzlashgan qoʻshimchani qoʻshish natijasida hosil boʻlgan soʻz ichki imkoniyat asosida yasalgan soʻz hisoblanadi:

*kitobxon, doimiy, adabiyotshunos.*

Oʻz qatlam soʻzlari quyidagi xususiyatlarga ega.

1) v, z, l, g, tovushlari bilan boshlanadigan soʻzlar oʻzbekcha emas: lab.

2) f, h, ʻ ishtirok etgan soʻzlar oʻzbekcha hisoblanmaydi: bahor, fikr.

3) oʻzbekcha soʻzlarda unlilar yonma-yon kelmaydi: (soat).

4) oʻzbekcha soʻzlar omonim xarakterda boʻladi: soch-soch, tut-tut.

5) oʻzbekcha soʻzlarda tarixiy tovush oʻzgarishlari sezilib turadi: yigʻoch-ogʻoch, jil-yil: jilon-yilon-ilon.

6) oʻzbekcha (turkiy) soʻzlarda bir boʻgʻin tarkibida undoshlar yonma-yon kelmaydi; gʻisht, daraxt.

### **Oʻzlashgan qatlam**

*Arabcha, forsha-tojikcha, xitoycha, moʻgʻulcha, grekcha, ruscha* soʻzlar oʻzlashgan qatlamni tashkil etadi.

Oʻzbek tilidagi oʻzlashgan qatlamning asosini arab, fors-tojik, rus tillaridan oʻtgan soʻzlar tashkil etadi.

**Arabcha soʻzlar:** kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, maʼno, ilhom, sanʼat, tanqid, madaniyat, kashf, aʼlo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, magʻrur, xafa.

Arabcha soʻzlar diniy atamalar va turli soha nomlaridir. Oʻzbek xalqi vakillariga qoʻyiladigan ismlarning koʻpi arabcha. Arabcha soʻzlar quyidagi xususiyatlarga ega.

1.(v) f, h, ʻ harflari ishtirok etgan soʻzlar, asosan, arabcha: *maʼno, taʼlimot, naʼra, sinf*

2. Arabcha soʻzlar siniq koʻpligiga ega, yaʼni koʻplik soʻz tarkibini oʻzgartirish bilan hosil qilinadi: *hol-ahvol, xabar-axbor, ruh-arvoh, xulq-axloq, sheʼr-ashʼor.*

3. Arabcha soʻzlarda oʻzakdosh soʻz tarkibidagi undoshlar yordamida hosil qilinadi: *hukm- hokim, -hakam-mahkama-hokimiyat-mahkuma; fikr-tafakkur-mutafakkir; kitob-maktab-kutubxona-maktub; sinf-tasnif; hurmat-ehtirom-marhamat-muhtaram;*

### **Forscha-tojikcha soʻzlar**

Forscha-tojikcha soʻzlar quyidagi xususiyatlarga ega. a) tojikcha soʻzlar oʻzbek tili lugʻati tarkibida qadimdan mavjud boʻlib kelgan. b) toj ch, l, g, z undoshlari bilan boshlanadigan soʻzlar asosan tojikcha hisoblanadi: lola,

gul, chaman. v) -xo`r, -noma, -do`z, -xon, -namo, -shunos, -boz, -bon, -dor, no-, ser-qo`shimchalari forsha-tojikchadir.

*Tojikcha so`zlar:* osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, mirob, dasta, bemor, g`isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, serob, shirin, mard, mehribon, jonajon, kamtar, kam, chala, balki, agar, ham, go`sht, non, sozanda, sabzavot, reja, dard, ombur, tешa, bobo, dugona, do`st, xonadon, peshona, kaft.

Туркий тилларнинг лексик хус усиятларини куйидаги туркий тиллар мисолида кузатиш мумкин:

Чуваш тилида кадимги тиллар субстратида чуваш сўзлари устунлик килади. Фин-угор сўзлари орасида чуваш тили оралик тил ҳисобланади.

Чуваш тилига ўзлашган славян сўзларнинг аксарияти рус тили орқали ўтган.

Қрим татар тилида қўлланадиган айрим сўзлар (масалан: *балабан* «катта», *қаранта* «оила») ҳозирги туркий тилларда учрамайди.

Тува тилида: а) мўғулча сўзларнинг кўп ўзлашган;

б) фин-угор, самодий, тунгус-манчжур тилларидан кўп сўзлар ўтган.

Тува тили кўпгина лаҳжа ва шевалари билан оғзаки тил сифатида ривожланиб келди, унинг асосий хусусиятлари ҳали батафсил ўрганилмаган. Тува ёзма адабий тили 1939-1941 йилларда лотин алифбосида иш олиб борди, ундан кейин эса рус алифбосида иш юрита бошлади.

*Сын* «одам», *сәмса* «бурун», *қаған* «бел», *арәм* (аёл), *çěçě* (пичош), *тулă* (буғдой) сўзлари фақат булғор тилида учрайди.

Волга булғорлари тилига хос сўзлар қабртошларида ва бошқа ёдгорликларда сақланиб қолган.

| Оригиналда | Транскрипция   | Чуваш тилидаги мушобили | Ўзбек тилида |
|------------|----------------|-------------------------|--------------|
| جال        | жал            | çул                     | «йил»        |
| جور        | жұр            | çур (çёр)               | «юз»         |
| جيرم       | жұр(у)м        | çирум (çирём)           | «йигирма»    |
| جيات       | ж(у)йт         | çиччү (çиччё)           | «етти»       |
| جيارمنشى   | ж(у)йэрм(у)ниш | çируммйиш               | «йигирманчи» |
| تمراج      | т(у)м(у)рэч    | тимёрçү (тимёрçё)       | «темирчи»    |

Бундан ташқари, турли манбаларда қуйидаги булғор сўзлари ҳам сақланиб қолган<sup>1</sup>.

1. Унвон, мансаб, табақа номлари: *қаған, хан, бағатур, эрар, маламыр, жэна, таңри, кавахан, тархан, тудун.*

2. Уруғ номлари: *Чақар, Куйвар, Йунан, Охсун, Куригиз, Булғор.*

3. Шахс исмлари (хонлар номи): *Ябғухон, Исбул, Ичиргу бўйла, Кормишос, Кубрат (583-642), Исперих// Асперух (679-701), Крум// Курум (803-814), Омуртаг (814-831), Тэктэм, Сэвэр, Свинэх, Тэлэс, Тэрвэл, Умор, Байан.*

<sup>1</sup> Н.И.Ашморин. Болгари и чувашский язык. Казань, 1902.

3. Мучал номлари: *дваниш* (<*тавышқан*) «*сичқон йили*», *дилом* (<*д...ылан*, чув. *şılэн* (*şёлен*) «*илон йили*»), *мор* (<*мәһ.* *морин*) «*от йили*», *тох* (<*тоох*) «*товуқ йили*», *қучи* (*қўй йили*), *дахс* (<*тоңуз*) «*тәнгиз йили*».

4. Ой номлари: 1) *аләм* (<*илки эм*), «биринчи ой»;

2) *шегор аләм*, «иккинчи ой»;

- 1) *вэчэм* (қиёс. чув. *виççû* (*виççё*) «учинчи ой»;
- 2) *тутом* (қиёс. чув. *тұватым* (*тәватәм*) «тўртинчи ой»;
- 3) *бэхти* (<*беш*) «бешинчи ой»;
- 4) *алтом* (қиёс. чув. *ултты*) «олтинчи ой»;
- 5) *шэхтэм* (қиёс. чув. *саккыр*) «саккизинчи ой»;
- 6) *твирэм* (қиёс. чув. *тұххұр* (*тәххәр*) «тўққизинчи ой»;
- 7) *эни аләм* (қиёс. чув. *вуны* (*вунă*) «ўнинчи ой»;
- 8) *вэр эни аләм* (қиёс. *вунпұр* (*вунпёр*) «ўн биринчи ой»;

Қозоқ тилининг икки ёки уч асосий лахжаси бор: Шимолий -шарқий, жанубий ва гарбий.

1. Шимолий-шарқий лахжа қозоқ адабий тилининг асосини ташкил қилади.

2. Жанубий лахжа лугат қурилиши жиҳатдан адабий тилдан баъзи бир фонетик фарқларга эга:

- а) к нинг г га утиш ҳолати: гуриш (*кўрйш* ўрнида) «гуруч», гөң (көң ўрнида) «гунг»;
- б) ж нинг й га утиши: йақ (жақ урнида)- «йук»;
- в) с нинг ш га утиши: мыйық (мыйық урнида)- «мушук»;
- г) I шахс кўпликдаги –алы/-ей буйруқ-истак майли қўшимчасининг мавжудлиги: боралы (барайық ўрнида) - «борайлик»;
- е) сўнг кўмакчининг тўлиқ шакли -мынан қўлланиши (-ман ўрнида).

3. Ғарбий лахжа жанубий лахжадан қуйидаги асосий хусусиятлари билан фарқланади:

- а) кенг унлиларнинг тор унлиларга (о>ў) утиши, масалан: қул (қол ўрнида) «қул»;
- б) й>н утишининг суроқ олмошларида қўлланиши: қанда (қайда ўрнида) «қаерда»;
- в) I шахс кўпликдаги кишилиқ олмошларида қаратқич келишигининг қисқарган шаклининг қўлланиши: бизиң (биздиң ўрнида) «бизники»;
- г) барды/баруволы феълларининг тенг қўлланиши.

Қозоқ тили ўз тарихий тараққиёти даврида, биринчидан, ғарбий туркий қабилалар иттифоқи бўлган булғорлар, печенеглар ҳамда Олтин Ўрда, Катта Нўғай ўрдаси каби давлатлар билан, иккинчидан, Ўрта Осиё ва Қозогистон ҳудудидаги Ғарбий турк хоқонликлари - қорахонийлар ва бошқа қабила иттифоқлари билан ҳамкорликда бўлган. Қозоқ миллий тили эса XV-XVI асрларда тўлиқ шаклланган.

